



HALI HAMON OQLANMAGAN O'ZBEKISTON BIRINCHI OLIY SUDI RAISI

Jumanazarova Rayyona Muradullayevna

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi
akademik litsey 2.2-guruh o'quvchisi
+998881028779

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10361487>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-December 2023 yil

Ma'qullandi: 06- December 2023 yil

Nashr qilindi: 12- December 2023 yil

KEY WORDS

Sa'dulla Qosimov Rashidovich janoblari 1901-yil Toshkent shahrida tavallud topganlar.

ABSTRACT

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Keling, tariximizning tashviqot, yolg'on-u ilohiylashtirishlardan holi bo'lgan qonli sahifalariga bir ko'z tashlaylik, yalong'och haqiqatning ko'ziga tik boqaylik. To'g'ri, yolg'iz xayol go'zaldir, haqiqatning ko'zlari qo'rqinchli. Lekin uning ko'zlariga boqish kerak. Siyosat o'zgaradi, odamlar o'zgaradi, tarixga bo'lgan munosabat o'zgaradi, ammo tarix mohiyatan o'zgarmaydi, chunki o'lganlar o'zgara olmaydi.

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Keling, tariximizning tashviqot, yolg'on-u ilohiylashtirishlardan holi bo'lgan qonli sahifalariga bir ko'z tashlaylik, yalong'och haqiqatning ko'ziga tik boqaylik. To'g'ri, yolg'iz xayol go'zaldir, haqiqatning ko'zlari qo'rqinchli. Lekin uning ko'zlariga boqish kerak. Siyosat o'zgaradi, odamlar o'zgaradi, tarixga bo'lgan munosabat o'zgaradi, ammo tarix mohiyatan o'zgarmaydi, chunki o'lganlar o'zgara olmaydi.

Avvalo, O'zbekistonning birinchi Oliy sudi raisi kim va qanday shaxs ekanligi haqida gap ketsa, o'tgan suronli XX asning 20-30-yillarida hali yosh bo'lishiga qaramay o'ta ma'suliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan, haqiqatparvar Sa'dulla Qosimov namoyon bo'ladi.

Sa'dulla Qosimov Rashidovich janoblari 1901-yil Toshkent shahrida tavallud topganlar. Ularning ota-onalari tomonidan ilmga yo'naltirilganliklari, u kishining 8 yoshlaridan boshlab boshlang'ich ta'limni zamonasining ziyoli muallimlaridan hisoblangan Eshonxo'ja Xoniyning yangi usuldagi "Xoniya" nomli maktablarida, so'ngra 7 yildan so'ng esa jadidchilik harakatining faol a'zolaridan biri hisoblanmish Munavvarqori Abdurashxonovning rushdiy "Namuna" maktabida o'qiganliklari yaqqol misol bo'la oladi. Albatta, Sa'dulla janoblarining ilm oshirishga doir izlanishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 1918-1920 yillar oralig'ida "O'zbek pedagogika bilim yurti"da tahsilni davom ettirdilar. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Sa'dulla Qosimovning yoshlikdan rus-tuzem maktablarida olgan bilimlari u kishini zamonasining yetuk shaxsi sifatida yetishib chiqishlarida mustahkam poydevor bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Oliy o'quv yurtlarida o'qib yurgan kezlarida, o'qituvchilik faoliyati bilan ham shug'ullanganlar. So'ngra, 1919-yil aprel oylarida "Namuna" maktabi asoschisi bo'lmish Munavvarqori Abdurashidxonov tavsiyalariga ko'ra, bolsheviklar firqasiga kiradilar. Ma'lumot o'rnida, Bolsheviklar firqasi bu Rossiya sotsial-demokratik ishchilar partiyasi. Bolsheviklar firqasidan so'ng faoliyatlari Turkfront siyosiy bo'limiga ko'chirilgandan so'ng, 1919-yil oxiriga

qadar Turkfront maktab ishlari bo'yicha instruktor lavozimida ish olib boradilar. 1920-1921 yillar esa chinakam vatan o'g'lonlari qatorida Sa'dulla Qosimov ham harbiy xizmatda bo'ladilar...

1925-yilga qadar Sa'dulla Qosimov Eski shahar ijroiya qo'mitasida maorif bo'limi raisining o'rinbosari vazifasiga (1922), sud boshqaruv tizimida tajribali sudyalardan biriga tergov-taftish ishlarini yuritish (1923), Toshkent viloyati sud a'zosi (1923) va viloyat sud raisi o'rinbosari (1924) kabi yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1925-yil dekabrda esa O'zSSR MIK Prezidiumining qarori asosida O'zSSR Oliy sudi raisi bo'lib ish boshlaganlar. Ammo kim ham o'yabdi deysiz, mana shunday yoshda eng yuqori lavozimlardan biriga tayinlanganlari orqasidan aynanchli qismat kutib turganini...

Oradan 4 yil o'tar-o'tmas, hukumat barcha ma'rifatparvar, adib, shoir-u yozuvchilar qatori Sa'dulla Qosimovga ham "mag'zava ag'dardi". Tan olish kerakki, qaysi hukumatga ham yoqardi, xalqni adolatli yo'l sari boshlovchi, sud tizimida halollik ila ish yuritgan jonkuyar inson. Yana ochiqroq aytadigan bo'lsak, totalitar tartibotdagi hukumat uchun o'zidan aqli kadrlar yetishib chiqishi, o'zboshimchalik ila ular faoliyatining aslini ko'rsatuvchi yoshlar kerak emas edi. Nazarimda, hukumatning Sa'dulla Qosimovga nisbatan yuritgan bu siyosati boshqa "qoralanganlar" kabi xalqni mustaqillikka undagani uchun emas, balki, 24 yoshli yigitni qisqa muddat ichida bunday yuqori lavozimga ko'tarilib, ishlayotgani hukumat tepasida o'tirganlarda shubha, aniqrog'i, qo'rquv uyg'otgan bo'lishi ham mumkin. Zero, xalqimiz bejizga aytmagan, aql yoshda emas boshda, deb.

Sa'dulla Qosimov faoliyatiga shubha bilan qaragan hukumat uning ish faoliyati ustidan tekshiruv ishlarini yuritish maqsadida Moskvadan Rastopchin, Kornilov va mahalliy vakillardan Ahmadbek Movlonbekovlardan tashkil topgan komissiya yuboradi. Komissiya qaroriga ko'ra, 1929-yil 3-martdan boshlab Sa'dulla Qosimov lavozimidan ozod etildi. Qancha harakat qilinmasin, komissiya olib borgan 3 oylik tekshiruvlar hech qanday natija bermadi. Axir, qozonda bori cho'michga chiqadi. Ammo komissiyaning bu izlanishlari, ya'ni hech bir ayblovsiz qaytishi, tabiiyki, hukumatga manzur bo'lmaydi. Bu voqealardan so'ng ham, Sa'dulla Qosimov oz lavozimlarini tiklab, qayta faoliyat yurita boshlaydi. Ammo, 1930-yil martda SSR Oliy sudi prokuraturasining muhim ishlar bo'yicha tergovchisi Qosimovga nisbatan ayblov bayonnomasi tuzadi. Qosimov va unga yaqin kishilar, shu jumladan Bahriddin Sharipov, Nasriddin Olimov, Vyacheslav Petrovich Spiridinov va ular qatorida jami 7 kishiga nisbatan sud jarayonlari Samarqandda 30-martda boshlandi. Sud jarayonlarining asosiy qahramonlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, Davlat qoralovchisi R.I.Katanyan, Sudga raislik qilgan SSSR Oliy sudi sudyasi Vasilyev Yujin va boshqalar bor edi. Ularga nisbatan ham o'sha zamon qurbonlari kabi ayblovlar qo'yildi: "burjua millatchilar", "bosmachilar", "poraxo'rlar". Bunga qo'shimcha ravishda, Katanyan Sa'dulla Qosimov tomonidan ushbu ablovlarga nisbatan dalil, isbot talab etganda shunday deydi: "Siz o'z xatti-harakatlaringizning oqibatlarini qanday bo'lishini oldindan ko'rgansiz, siz o'z faoliyatingiz bilan sovet hokimiyatining obro'yiga putur yetkazayotganingizni oldindan bilgansiz. Shuning o'zi bizga kifoya!". Albatta bu ayblovlar, tuhmatlarga nisbatan oliy darajadagi sudya nega o'zini himoya qilmadi, axir o'zining bu qadar manfur kimsa emasligini isbotlay olar edi-ku, degan savol tug'ilishi tabiiy. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, "Uyimni tintuv qilishganida hamma qog'ozlarimni olib ketishgan edi. Qolganlarini ham ko'zimning oldida yoqib tashladilar. Bugun mening nomimga aytilayotgan bo'hton va yolg'onlarni hujjatlarimsiz qanday qilib isbotlayman," deydi Qosimov...

Bu vaqtda ommaviy axborot vositalari qo'li qo'lga tegmay ishlayotgan edi. "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka", "Sharq haqiqati", "Yangi Farg'ona" kabi gazetalar "Qosimovchilik harakati" sud ishi bo'yicha maqolalar ketma-ketligini uyushtirib yubordi. "Qizil O'zbekiston" gazetasida bu sud ishiga oid 75 ta maqola chiqarilishi ayni isbot. 1930-yil 21-iyun kuni sudya Vasilyev Yujin "Qosimovchilar" tamg'asi ostida sudlanayotgan Sa'dulla Qosimov va uning safdoshlarini aholining noroziligiga ham qaramay, o'limga hukm qiladi...

Mana oradan yillar o'tib, qatag'on qurbonlaridan biri, jadidchilik harakatining faol a'zosi, xalqimiz ko'nglidan o'zining durdona asarlari bilan joy olgan adibimiz Abdulla Qodiriy kuni kecha 1-dekabrda o'z nabirasi Xondamir Qodiriy tomonidan qilingan sa'y-harakatlar asosida sud tomonidan oqlandi. Ma'lumot o'rnida, Abdulla Qodiriy O'zbekiston SSR Oliy sudi jinoyat ishlar bo'yicha hay'atining 1926-yil 16-iyundagi hukmi asosida hukumat rahbarlarini obro'sizlantirishda ayblangan, bunga uning "Mushtum" jurnalida chop etilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi sabab bo'lgan. Yozuvchining: "Men ma'naviy o'ldirildim, endi men uchun jismoniy o'lim hech narsa emas!", degan mashhur xitobi o'sha sud jarayonida aytilgan. Abdulla Qodiriy singari, Sa'dulla Qosimov ham sudda o'ziga nisbatan bo'lgan tuhmatlarga javoban shunday deydi: "To'g'ri, sudda menga qancha bo'hton aytishsa ham indamadim. Xo'sh nimani gapiraman? Kimgadir men ham tuhmat qilayinmi? Vijdonsiz yashagandan men uchun pok vijdon bilan o'lim afzalku"

Oradan shuncha yillar otib, sho'ro davridagi hukumatning adolatsizliklari qayta ko'rib chiqilib, odil sudlov asosida isbotlanmoqda. Shu o'rinda bir jihatni ham e'tiborga olishimiz lozim deb o'ylayman: bu oqlashlar, ayblov hukmlarini qayta ko'rib chiqilishlari shunchaki SSR hukumatining ma'rifatparvar shaxslarga nisbatan shafqatsizligini isbotlab, ochib berish emas, balki, boshqa tomondan nazar tashlasak, bu toptalgan sha'n, nomus, g'ururning asl bahosini qayta tiklashi hamdir.

Fikrlarim so'ngida shuni ayta olamanki, Sa'dulla Qosimov Rashidovich qatag'on qurbonlaridan biri, balki, SSR hukumati tomonidan qoralangan O'zbekiston SSR Oliy sudining birinchi raisidir. Bugungi sud tizimining oshkoraligi, qonuniyligi ta'minlangan zamonda, qanchadan-qancha adiblarimiz, yozuvchilarimiz, shoirlarimiz, xalq ozodligi uchun qurbon bo'lgan bobokalonlarimiz oqlanayotgan bir vaqtda Sa'dulla Qosimov ishi ham ko'rib chiqilishi kerak, balki, zarur deb o'ylayman. Zero, haqiqat olmos kabidir. Qanchalar loyga botmasin, uning qiymati va bahosi o'zgarmaydi. Yaqin yillar ichida, ana shu olmos o'zining asl bahosini tiklashiga umid qilamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy, "O'tkan kunlar".
2. Abdulhamid Cho'lpon, "Xayol".
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. <https://t.me/xushnudbek>
5. <https://shosh.uz>